

TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY MAHORATLARINING SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI.

Sh.Avezov

Buxoro davlat universiteti

ANNOTATSIYA

Maqola oliy ta'limda tasviriy san'at sohasida yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlashda tasvirlash texnikasi va mahoratlarini shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, unda qadimgi usta rassomlarning mashhur san'at asarlariga qarab nusha olish orqali malakalarini takomillashtirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, metodika, tasvirlash texnikasi, texnik mahorat, akademik vazifa, kompozitsiya, chiziq, konstruksiya.

So'nggi vaqtlarda uzluksiz ta'lim tizimida eng ko'p muhokama qilinadigan muammolardan biri o'qituvchining kasbiy kompetentligini takomillashtirishdir. Shu nuqtai nazardan bo'lajak o'qituvchi-rassomning kompetensiyalari eng dolzarb ahamiyat kasb etadi. L.L.Malinskaya, V.S.Kuzin, S.P.Lomov, B.M.Nemenskiy, N.N.Rostovsev, N.V.Sokolnikova va boshqa ko'plab tadqiqotchilar va olim, professional-amaliyotchilar mazkur muammo borsida uzoq yillardan buyon ilmiy ishlar olib borganlar va olib bormoqdalar. Ular nafaqat umumiy pedagogik etuk mutaxassisni tarbiyalash, balki kasbiy faoliyatning bir qismi sifatida ijodiy o'z-o'zini ro'yobga chiqarish uchun ham yuqori darajadagi tayyorgarlikning muhimligini ta'kidlaydilar. Ma'lumki, tasviriy san'atning nazariy asoslarini puxta egallash talabaga tabiatdagi barcha shakllar tuzilishi xaqidagi qonuniyatlarini to'g'ri ko'rish va tushunishga, ko'rganini mahorat bilan to'g'ri tasvirlashga yordam beradi hamda bo'lajak pedagogik faoliyatga puxta tayyorlaydi. Ammo kelajakda mahoratli rassom-pedagog bo'lish uchun bular hali yetarli emas. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talaba naturadan rasm chizishning asosiy nazariy qonun-qoidalarini yaxshi tushunib eslab qolsada, lekin olgan nazariy va amaliy bilimlarini amalda qo'llay olmaslik hollari uchrab turadi. Shuning uchun u nazariy bilimlardan tashqari tasviriy san'atda tasvirilay olish ijro va texnik mahoratiga ham ega bo'lishi kerak. Texnik ko'nikmalar rassomga xuddi umumta'lim maktabiga borgan yosh bolaning husniat yozishda harflarni bilishi kerak bo'lgani kabi muhimdir.

Texnik mahoratlarni erkin va mohirlik bilan egallash talabaning ijodga to'la berilishini, ijodiy qobiliyatlarni amalga oshirishni va yuqori malakali rassom-pedagog bo'lish imkonini beradi. Tasvirlash mahorati va texnikani bo'sh egallagan talaba o'zini



amaliy ish jarayonida erkin his eta olmaydi va natijada o'z fikri, hissiyotlarini to'la ifoda etib bera olmaydi. Qadimda rassomlar o'z o'quvchilari bilan birinchi bor tanishishda shogirdlarga vazifa sifatida usta rassomlar namunalaridan nusxa bajarishni vazifa sifatida berganlar va unda asosiy e'tibor tasvirlash texnikasiga qaratilgan. Bularni Julen, A.T.Skino, V.V.Pukirev, A.K.Savrasov qo'llanmalarida ko'rish mumkin. Shuningdek, bunday ajoyib tarzda ishlangan san'at asarlarini biz Sharqning buyuk musavviri Kamoliddin Behzodning Xuroson podshosi Sulton Xusayn Boyqaro portretining oddiy chiziqlar texnikasi orqali naqadar tugal va nafis tarzda yaratilganligining guvohi bo'lamiz. Ko'p hollarda bo'lajak rassom-pedagogni kasbiy tayyorlashda tasvirlash texnikasi haqidagi muhim masala ba'zan esdan chiqarib qoldiriladi. Shuning uchun texnik ko'nikmalar va mahoratning rivojlanishi ijodiy faoliyat hisoblanmaydi deb ta'kidlash - bu biror bir ilmiy asosga ega bo'lmagan hato, yanglishishdir. Talabaning egallab borayotgan mutaxassislik mahorati nafaqat uning pedagogik, ta'lim jarayoni sifatini belgilaydi, balki uning ijodiy qobiliyatlarini namoyon bo'lishiga yordam beradi. Qobiliyat har qanday buyuk shaxs iste'dodining asosini tashkil etadi.

Ko'nikmalar - bu har qanday ijodiy ishning, shuningdek tasviriy faoliyatning asosidir. Ko'nikmalar mashqlar bajarish jarayonida mustahkamlanib boradi. Mashqlar aniq ishlab chiqilgan va tartibga ega tizimiga asoslangan bo'lishi kerak. To'g'ri bajarilgan mashqlar va ishlar bajarish usullarini egallab olish natijasida kerakli texnik ko'nikmalarni egallab olish mumkin. Bu borada buyuk fransuz rassomi va me'mori Le Korbyuze shunday degan edi: "Tasvirlash jarayonida buyumlarning qanday dunyoga kelishini, ularning qanday rivojlanishini, o'sishini, gullab-yashnashini ko'rasan. Bu borliqni kuzatish, avvalo, buyumlarning "ichki" dunyosini, so'ngra "tashqarisini" o'rganish natijasida amalga oshiriladi – buyumning haqiqiy go'zalligini, avvalo, tashqarisiga e'tibor berib, so'ngra tayexnik mahorat bilan tasvirlash jarayonida idrok etamiz. Tasvirlash - kuzatish, yaratish, ixtiro qilish demakdir".

Har bir pedagogning rasm chizishga o'qitish metodikasi va individual tizimi qanday bo'lmasin, lekin talaba to'g'ri texnik tayyorgarlikka ega bo'lsa, u har qanday pedagog-rassom rahbarligida saboq olmasin, kelgusida muvaffaqiyatli rassom bo'lib yetishib chiqadi va rivojlanib boradi. Lekin, pedagogning mahorati shunda belgilanadiki, u har bir talabaga uning tasvirlash texnikasiga mos ravishda ko'rsatma berib, ta'lim tarbiya usullaridan keng foydalana olishi va talabaga to'g'ri ko'rsatma berishidir. Tasvirlash mahorati - bu insonning ilgari olgan tajribasi asosida ma'lum usul va uslublarni qo'llash bilan qandaydir bir shaklni haqqoniy bajara olish qobiliyatiga aytiladi. Badiiy ijodiy faoliyatda mahorat avvaldan olingan bilim va



ko'nikmalar asosida yuzaga keladi. Yoshlar bilan ishlashda ularning mahoratini asta-sekinlik bilan rivojlantirish va takomillashtirishni doimo yodda tutish kerak.

Boshlang'ich kurslarda talabada dastlab mahorat juda bo'sh ifodalanadi, keyinchalik esa to'g'ri ko'nikmalar ishlab chiqish jarayonida ular mustahkamlanib boradi. Shuni ham alohida takidlash kerakki, tasviriy jarayonda xatolarga yo'l qo'yilganida ularni qanday bartaraf etish uchun, tasvirlashning "harakatlar namunasi" bo'lishi kerak. Mahorat va ko'nikmalar to'g'risda taniqli psixolog B.F.Lomov shunday deb yozadi: "Mahorat murakkab psixik jarayon asosida tashkil topadi. Biror-bir faoliyat turiga tegishli ko'nikmalar tizimi bilan birgalikda mashqlar bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Bunga erishish uchun, odam faqatgina kerakli ko'nikmalar hamda bilimlar tizimini egallagan bo'lishi kerak. «Mahorat bilan bajarilgan harakat" - bu har doim ham ishning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Bugungi kunda mamlakatimiz maktablari uchun yangi pedagogik texnologiya asosida tayyorlanadigan dastur, darslik va o'quv-metodik qo'llanmalariga qo'yiladigan talablar va ularning ilmiy-pedagogik asoslari xususida qator pedagogik qo'llanmalar yaratildi¹. Bu qo'llanmalarda zamonaviy o'qitish va ta'limning yangi tizimi, modeli, yangi pedagogik texnologiya, didaktika, metodika, Davlat ta'lim standard va o'quv dasturlari bo'yicha talqin etilishi ko'rsatilib, asoslab berilgan. Shunga ko'ra, har bir o'quv predmeti bo'yicha dastur, darslik, o'quv-metodik qo'llanmalarni yaratish bilan birga, ulami o'qitish texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi ishlab chiqiladi. Shu jumladan, «Tasviriy san'at» o'quv fanining ham o'qitish texnologiyasi, didaktikasi va metodikasini qayta ko'rib chiqish zarurati tug'ildi. Ma'lumki, maktabda o'qitiladigan tasviriy san'at o'quv predmeti o'zining maqsad-vazifasi — mazmun-mohiyatiga ko'ra: 1. Borliqni idrok etish (1—4-sinflarda); 2. Badiiy qurish-yasash (1—4-sinflarda); 3. Narsani o'ziga qarab tasvirlash; 4. Kompozitsion faoliyat; 5. San'atshunoslik asoslari (san'atni idrok etish) kabi darsmashg'ulotlar asosida faoliyat ko'rsatadi. Tasviriy san'atning bu mashg'ulot turlari o'ziga xos pedagogik texnologiyaga, didaktik prinsiplarga va metodik uslublarga egadir. Shuningdek, bu mashg'ulotlarning barchasi yagona maqsad bo'yicha faoliyat yuritadi. Bu maqsadga erishishda ularning har biri alohidaalohida vazifalarni bajarib, darsda barcha o'quv-tarbiya vositalaridan foydalangan holda oldindan belgilangan maqsadga erishishni kafolatlaydigan pedagogik jarayonning loyihasi bo'lmish pedagogik texnologiyadan foydalaniladi. Maktablarimiz dunyoviy ta'limga asoslangan bo'lib, har bir fanning oson, qisqa, asosli o'qitilishining pedagogik sharoitini yarata oladigan didaktik prinsiplarga amal qiladi. Bu prinsiplar: ilmiylik, izchillik, tarbiyaviylik, sistemalilik, ketma-ketlik, onglik-



faollik, ko'rgazmalilik, ijodkorlik, nazariyot bilan amaliyotning uzviyligi va yangi o'quv materiallari, o'quv fanlarini bir-biriga bog'liq holda o'qitishdan iborat bo'ladi. Maktabning tasviriy san'at o'qituvchisi didaktik prinsiplarga amal qilishi zarur. Chunki maktabda tasviriy san'atni didaktik prinsiplar asosida o'qitish har bir dars, mashg'ulot samaradorligini oshiradi va belgilangan maqsadga erishishni kafolatlaydi. Maktabda o'qitiladigan tasviriy san'atdan grafik bilim-malaka berish o'quv predmetining asosiy va bosh maqsadi-vazifasi bo'lib, uning Davlat ta'lim standard va o'quv dasturi talabida bo'lishi, berilayotgan bilim-malakalaming o'quvchi ongiga qay darajada yetkazilishiga bog'liq. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish texnologiyasi va didaktik jarayonlari ancha murakkab bo'lib, bu darsdagi o'qitish metodlarining turlanishiga sabab bo'ladi. Maktabdagi tasviriy san'at ta'limida pedagogikaning «Og'zaki bayon etish», «Ko'rgazmali 4 o'qitish», «Amaliy ishlar» metodi va ularning zaruriy uslublaridan foydalaniladi. Bu usullar: • «Og'zaki bayon etish» metodida «Hikoya», «Ma'ruza», «Suhbat», «Savol-javob» kabilardan iborat bo'ladi. • «Ko'rgazmali o'qitish» metodida «Ko'rsatish», «Namoyish etish», «Ekskursiya» (sayohat, poxodlar) mazmunidagi uslublardan foydalaniladi. • «Amaliy ishlar» metodida esa «Laboratoriya ishlari», «Rasm chizish mashqlari» «Haykaltaroshlik mashqlari», «Qurish-yasash mashqlari», «San'at asarlari tahlili» kabi mashq amaliyotlari mazmunida tashkil etiladi. Umuman, maktabda tasviriy san'atni o'qitish va berilayotgan bilim-malakalaming yuqori saviyada bo'lishi uchun o'qituvchi dars mazmunidan kelib chiqqan holda dars materialini tushuntirish, asoslash, ko'rsatish, qaytarish kabi bayon etishning eng qulay, samarali metodini tanlaydi. Tasviriy san'atni o'qitishda g'oyat murakkab jarayonlar sodir bo'ladiki, bu davrda o'qituvchi bir necha metod va uslublardan foydalanadi, bunday metodlardan biri «Aralash metod» deb ataladi. Tasviriy san'atning barcha darslarida «Aralash» metodidan ham foydalaniladi. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish Aristotel davridan boshlanib, u Qadimgi Yunonistonda Sikion, Efes, Fivan maktablarida takomillashadi. O'rta asrlarda tasviriy san'atni o'qitishning turlicha texnologiyasi, didaktika va metodikasi fan sifatida shakllana boradi. Lekin ularning barchasi stixiyali tarzda namoyon bo'lib kelaveradi. XVII asrdan Yevropadagi dunyoviy maktablarning rivojlanishi bilan ko'plab o'quv fanlarini o'qitish metodlari yaratila boshlandi. XVII—XX asrlarda Yevropa maktablari takomillashib, o'quv fanlarini o'qitish metodlari ham rivojlana boshlanadi. Jumladan, tasviriy san'atni o'qitish metodlari ham yaratila boshlandi. Maktabda tasviriy san'atning o'qitilishi va uning metodikasi yaratilishida Y. A. Komenskiy, K. D. Ushinskiy, I. G. Pestalotssi, P. Shmit, aka-uka Dyupyui, Ashbe, Chistyakov, Karadovski, Dyurer, Sapojnikov, Kulman, Baumgrat, Bakushinskiy kabi pedagoglar o'zlarining munosib hissalarini



qo'shishgan. XVII—XX asrlarda A. Sapojnikov, T. Smirnov, A. Solovyov, Z. Alekseyev, M. Popov, P. Chistyakov, A. Smirnov, Z. Kandaxchan, A. Karlson, Z. Rojkova, N. Rostovsev, V. Kuzin, Z. Shoroxov kabi rus pedagog rassomlari maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasini rivojlantirish yo'lida katta xizmat qilishgan. O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi asosan o'tgan asming 70-yillaridan boshlab rivojlana boshladi. Bu o'rinda R. Hasanov tashabbusi bilan O'zbekiston PFITIda estetika sektori tashkil etilishi ijobiy natija berdi. Bu yerda maktablarda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi bo'yicha katta ilmiy izlanishlar olib borildi.

Natijada M. Nabiyeu, B. Azimova, Q. Qosimov, X. Ergashev kabi metodist olimlar yetishib, ular tasviriy san'atni o'qitish metodlarining turli tomonlarini takomillashtirishga o'z hissalarini qo'shib kelishdi. O'tgan yillarda 1—4-sinflar uchun «Tasviriy san'at» darsligi yaratildi. Tasviriy san'atni o'qitish metodi va didaktikasiga oid qator metodik qo'llanmalar chop etildi. Mustaqillik yillarida maktabda tasviriy san'atni o'qitishga alohida e'tibor berildi.

Bu fan bo'yicha Davlat ta'lim standard, uni o'qitish konsepsiyasi va dasturlari mukammal ishlab chiqildi. Xulosa o'rnida shularni qayd qilish mumkinki, talabaga rasm chizish ko'nikma va mahoratini egallashiga yordam berish uchun unga qo'lini, ko'zini va aqlini mashq qildiruvchi maxsus topshiriqlar berish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Batirov J. S., Avezov S. N. THE CURRENT IMPORTANCE OF THE PHILOSOPHICAL AND PEDAGOGICAL VIEWS OF MEDIEVAL THINKERS ON ART OF THE PHILOSOPHICAL AND PEDAGOGICAL VIEWS OF MEDIEVAL THINKERS ON ART //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 4. – №. 4. – C. 293-296.
2. Botirov, J. S., Bakaev, S. S., Avliyakov, M. M., Shirinov, A. L., & Abdullaev, S. S. (2021). The same goes for art classes in private schools specific properties. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol, 27(2)*.
3. Avezov S. N. DEKORATIV QUTICHALAR YASASH TEXNALOGIYASI //ZAMONAVIY TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLARI. – 2022. – T. 1. – C. 228-231.
4. Jurayevich J. K., Sayfullayevich A. S. THE UNIQUE OF BUKHARA JEWS IN THE DYE INDUSTRY AND WEAVING CRAFT //Euro-Asia Conferences. – 2021. – T. 1. – №. 1. – C. 48-53.
5. Sayfullayevich A. S. Development and Dynamics of Bukhara Ornamental Art at the Modern Stage of Uzbekistan's Independence //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 31-35.



6. Абдуллаев, С. С., Бакаев, Ш. Ш., Остонова, Г. Р., & Шарипов, Ш. Ш. (2021). Орнаментальная символика в народном декоративно-прикладном искусстве Бухары. *European science*, (2 (58)), 17-19.
7. Avezov S. N. Using opportunities for independent education in the development of students' creative abilities //Telematique. – 2023. – Т. 22. – №. 01. – С. 221-229.
8. Shomurodov O. N. History of Teaching Fine Arts in Uzbekistan //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 9.
9. Shomurodov O. N. Perception and depiction of basic color relationships in painting performance //World Bulletin of Social Sciences. – 2021. – Т. 4. – №. 11. – С. 62-65.
10. Avezov S. N. The Current State of Formation of Students on the Basis of Creative Educational Technologies //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 122-126.
11. Avezov S. N. AMALIY BEZAK SANATI DARSLARIDA TALABALARNING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH USULLARI //ZAMONAVIY TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLARI. – 2022. – Т. 1. – С. 235-238.
12. Muzafarovna A. N., Jurayevich J. Q. The role of islam in folk decorative art of Bukhara //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 5. – С. 347-350.
13. Mukhiba, Sulaymonova. "THE ROLE AND IMPORTANCE OF FINE ARTS IN IMPARTING KNOWLEDGE AND SKILLS TO STUDENTS." *International Engineering Journal For Research & Development* 5.7 (2020): 3-3.
14. Latipovich, Shirinov Alisher. "TEACHING OF FOLK APPLIED ART ON THE BASIS OF TRADITIONS" TEACHER-STUDENT". *Euro-Asia Conferences*. Vol. 1. No. 1. 2021.
15. Sulaymonova, M. (2022). Improving the Methodology of Teaching Fine Arts with the Help of Collaboration Technology. *Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress*, 1(4), 117-123.
16. Boltaevna, S. M. (2021, January). Improving the quality of spiritual and educational work. In *Euro-Asia Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 27-28).
17. Avliyakulova N. M. Tasviriy San'at O 'Qitish Metodikasi» Fanidan Topshiriqlarni Nazorat Qilish Va Baholash //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 270-276.



18. Avliyakulova N. БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИ ТАСВИРИЙ-ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК ШАРТ-ШАРОИТЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

19. Zubrilin K. M., Muzafarovna A. N. Improvement of the Methodology for the Development of Professional Competence of Future Teachers of Fine Arts //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 82-85.

20. Muxitdinovna, A. Z. (2022). Montessori Preschool Organizations. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(1), 373-377.

21. To'raqulovich J. U., Muxitdinovna A. Z. Features of Speech Development in Children of Middle Preschool Age.

22. Boymurodova G., Tosheva N. Boshlang 'ich ta'limda bilish faoliyatini rivojlantiruvchi o'quv vaziyatlarini tashkillashtirishda hamkorlikda o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2020. – №. 1.

23. Маматов Д. К., Мамурова Д. И. РОЛЬ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

24. Ядгаров Н. Д., Хакимова Г. А. Самобытное творчество народных мастеров Узбекистана //Молодой ученый. – 2018. – №. 15. – С. 272-275.

25. Shavkatovich A. A., Sharifovna X. N. DEVELOPMENT OF DESIGN SKILLS OF HIGH SCHOOL STUDENTS //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – Т. 5. – №. 7. – С. 5-5.

26. Kadirova N. A. Ibadullaeva Sh. I. Characteristics of Uzbek embroidery //European journal of research and reflection in educational sciences. – 2020. – Т. 7. – №. 12. – С. 591.

27. Хакимова Г. А. Методические рекомендации по обучению искусству батика на занятиях творческих кружков //Актуальные задачи педагогики. – 2020. – С. 34-37.

28. Yadgarov, Nodir, and D. Mamatov. "Brief description of some architectural monuments of bukhara." *International Scientific and Practical Conference" Innovative ideas of*. 2019.

29. Mamatov D. K. The importance of teaching architecture drawing in secondary schools //E-Conference Globe. – 2021. – С. 102-104.





30. Ruzimurodova, Z., and D. K. Mamatov. "Peculiarities of the use of computer technologies in teaching engineering graphics." *World Bulletin of Social Sciences* 4.11 (2021): 136-140.

31. Mamatov D. PROJECTS OF MAKING CLAY AND PLASTIC TOYS IN PRE-SCHOOL EDUCATION //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 9. – C. 281-285.

